




MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
MAKTABGACHA TA'LIM FAKULTETI  
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH  
TA'LIM XORIJIY TIL KAFEDRASI**



**“Tillarni o‘qitishda  
zamonaviy  
paradigmalar”  
Xalqaro onlayn ilmiy –  
amaliy konferensiya  
materiallari**

**2024-YIL  
23-NOYABR**



**4-sho‘ba**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
MAKTABGACHA TA’LIM FAKULTETI  
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM XORIJIY TIL KAFEDRASI  
TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY  
PARADIGMALAR  
*xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya 2024-yil, 23-noyabr***

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
JIZZAK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY  
FACULTY OF PRESCHOOL EDUCATION  
THE DEPARTMENT OF FOREIGN LANGUAGES IN PRESCHOOL AND  
PRIMARY EDUCATION  
“MODERN PARADIGMS IN LANGUAGE TEACHING”  
*international scientific-practical conference  
NOVEMBER 23, 2024***

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ  
ФАКУЛЬТЕТ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ, КАФЕДРА  
ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫКА В ДОШКОЛЬНОМ И НАЧАЛЬНОМ  
ОБРАЗОВАНИИ  
СОВРЕМЕННЫЕ ПАРАДИГМЫ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ  
*международных научных и научно-практическая конференция  
23-ноября, 2024г***

**“Tillarni o‘qitishda zamonaviy paradigmalar”  
*Xalqaro onlayn ilmiy–amaliy konferensiya materiallari*  
4-SHO‘BA. FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM**

**“Ilm nuri print” MCHJ**

**Jizzax-2024**

121. <i>Saliyeva.N.S., TIBBIYOTDA MULOQOT TURLARI</i> .....	563
122. <i>Turdimurodova U.D va Sabdyushev Vladislav THE IMPORTANCE OF CULTURAL SENSITIVITY IN THE CONTEXT OF ORUEL'S POLITICAL TOPICS</i> .....	568
123. <i>Mamirova Gulnoza TOPONYMS IN LITERARY DISCOURSE: THE ROLE OF PLACE NAMES IN SHAPING NARRATIVE MEANING</i> .....	573
124. <i>Nazarov Rustam Irkinovich MUHANDISLIK O'QUV DASTURLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYALAR</i> .....	578
125. <i>Bo'riboev Alisher Yunusovich, Ismatov Abduqodir Isaboyevich INSON HAYOTINING TURLI YOSH DAVRLARIDAGI JISMONIY HUSUSIYATLARI</i> .....	584
126. <i>Yaroslav Vladimirovich Golovko , Temurov Elbek TEACHING ENGLISH THROUGH OUTDOOR AND NATURE-BASED ACTIVITIES FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS</i> .....	591
127. <i>Zarifakhon Makhsud qizi Makhmudova THE ROLE OF TRANSLATION IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION</i> .....	596
128. <i>Usmonov Aslam Qarshiboyevich HAJVIY MATNLARNI YANGI TILSHUNOSLIK TAHLIL USULLARI ORQALI O'RGANISH</i> .....	603
129. <i>Sindarov Kaxramon Tolliboyevich SHE'RIY MATNLARDA SINTAKTIK VOSITALARNING POETIK VAZIFALARI</i> .....	607
130. <i>Shoxafizova Nodina Akobirovna EFFECTIVENESS OF ACTIVE LEARNING AND PROBLEM-BASED LEARNING IN DIVERSE EDUCATIONAL ENVIRONMENTS</i> .....	614
131. <i>Zaripova Maftuna Bahrom qizi CHET EL ADABIYOTI NAMUNALARI ASOSIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHNING METODIK ASOSLARI</i> .....	617
132. <i>Bolbekova Zarina SO'ZLARNI TURKUMLARGA TASNIFLASH</i> .....	626
133. <i>Zaripova Maftuna Bahrom qizi CHET EL ADABIYOTI NAMUNALARINI O'RGANISH VA BAHOLASH HAMDA ULARNI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH YO'LLARI</i> .....	629

Tilanchining tug‘ilgan kunda to‘rt yeyish kerakligi fikri va non o‘rniga to‘rt so‘rashi matnga hajviy ohang beradi.

Ma‘nodosh so‘zlar orqali o‘xshash, ammo mazmuni ozgina farq qiladigan so‘zlar istehzoli ta‘sirni kuchaytiradi. Bu usulda kamroq sezilarli farqdagi sinonimlar ishlatiladi va bu orqali o‘xshashlik bilan birga kulgili ta‘sir beriladi.

*Misol:* Iltimos qilmasang, qovoqlar uyuuq ,

Zichlab quloqlarga tiqilgan paxta.

Miq etmas qarshingda o‘tirgan **“buyuk”**,

Dimog‘dor qarashlar sovuq va soxta. (Abdusaid Ko‘chimov)

Bu yerda “buyuk” so‘zi istehzoli ravishda ishlatilgan, bu so‘zning ziddiyatli ko‘rinishi hajviy ta‘sir yaratadi.

Shunday qilib, hajviy matnlarda so‘z tanlovi, mazmuniy nozikliklar va sinonimlardan o‘ziga xos tarzda foydalanish kulgili ma‘no, kinoya va istehzoni oshirib, o‘quvchida o‘ylantiruvchi va zavqli taassurot qoldiradi.

Tadqiqotlarda so‘zlarning ko‘chma, kinoya, istehzoli ma‘nolarda qo‘llanishi, leksik birliklar orqali kutilmagan ma‘no yaratish kabi usullar o‘rganilib, ular hajviy mazmun va ta‘sirni yaratishda qanday xizmat qilishi tahlil qilinadi. Hajviy matnlar tahlilida antonimlar, oksimoronlar, parodiya, parda ostidagi ifodalar va boshqa stilistik vositalardan foydalanish mumkin. Bu kabi vositalar matn lingvistikasi doirasida hajviylik va uning kommunikativ vazifasini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zME, 2008. –B.10.
2. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filolog. fan. d-ridas-si. Toshkent. 2001 yil., Maxsumova S. Erkin Vohidov asarlari lingvopragmatikasi. Toshkent. 2015-yil, 130-b. va b.
3. Hakimov M. O‘zbet pragmalingvistika asoslari.- Toshkent: Akademnashr, 2013. -176 b.

4. Nurmonov A., Hakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O‘zbek tili va adabiyoti, 2001, 4-son, 55-bet.
5. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987. - 256 b.
6. Shoabduraxmanov Sh. va bosh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1-qism. – T.: O‘qituvchi, 1980, 424-bet.
7. Qarang: Bobojonov Sh. Semema, uning nutqiy voqelanishi va izoxdi lugatdash talqini: Filol. fan. nomz. ...dis. avtoref. - Samaqand, 2004. – 26 b.
8. Safarov Sh., Toirova G., Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. O‘quv qo‘llanma. - Samarkand, SamDChTI nashri, 2007. -39 bet.

## **SHE’RIY MATNLARDA SINTAKTIK VOSITALARNING POETIK VAZIFALARI**

*Sindarov Kaxramon Tolliboyevich*

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat*

*pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti*

*kafedrasi o‘qituvchisi.*

Ma’lumki, lingvopoetik tahlil jarayonida poetik aktuallashgan – poetik mazmun bilan to‘yintirilgan til birliklarini aniqlash va ularni tegishli tarzda baholashdan iborat tamoyil asosida ish ko‘riladi. Tilshunoslikda mazkur yangi sohani ma’lum bir tizim asosida yaxlit planda o‘rganish yuzasidan tilshunoslar turli xil qarashlarini bayon qilganlar. Biroq masala mohiyati va lingvopoetikani mukammal tadqiq etishda ular bergan nazariyalar asos hisoblansa-da, tilning turli sath birliklarida voqelanuvchi lingvopoetik tahlil jarayonlari o‘zining mukammal, qat’iy bir tizim sifatida aniq yechimini hali topgani yo‘q. V.M.Jirmunskiy[1.28-30] ning lingvopoetika masalalariga bag‘ishlangan “Teoriya literaturi” kitobida lingvopoetikani tilshunoslikning ayrim sathlari bo‘yicha quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganish ta’kidlangan:

1. Poetik fonetika.

2. Poetik morfologiya.

3. Poetik sintaksis.

V.M.Jirmunskiy faqat tilshunoslikning fonetika, morfologiya va sintaksis sathlari doirasida kuzatiladigan poetik vositalar tahliligagina e'tibor qaratib, har qanday ijodkor asarlarida yetakchi o'rinni egallaydigan leksik birliklar, dialektal, frazeologik va boshqa til sathlari olimning nazaridan chetda qoldirilgan. A.Nurmonov ham xuddi shunday tahlil, ya'ni lingvopoetikani tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o'rganishiga qarab quyidagi qismlar bo'yicha tasniflaydi:

1. Fonetik poetika (FP).

2. Leksik poetika (LekP).

3. Sintaktik poetika (SP)[2.164].

Bu tasnif V.M.Jirmunskiy kiritgan tasnifdagi singari tilshunoslikning fonetika, morfologiya va sintaksis kabi sathlari doirasidagi lingvopoetik tahlil tamoyillariga asoslansa-da, biroq lingvopoetik termini ifodalovchi birikmalar tarkibidagi so'zlar o'rni almashtirilgan holda, ya'ni aynan poetik fonetika emas, fonetik poetika kabi tarzda belgilangan. Berilgan tasniflar tilshunoslikning barcha sathlarini keng qamrab olmagan bo'lsa-da, olimning terminlarni qo'llashdagi mazkur qarashlari masala mohiyatini to'g'ri ifodalaydi, chunki lingvopoetika lingvistikaning alohida yangi sohasi sifatida badiiy asar tilini o'rganuvchi yangi yo'nalishlardan biri hisoblanib, lingvopoetik tahlil jarayoni faqatgina adabiyotshunoslikka oid poetik sathni emas, balki muayyan til sathiga doir poetik vositalarni o'rganadi. Shu sababli ham A.Nurmonov taklif etgan terminlar o'zbek tilshunosligida sohaning rivojlanishi hamda ushbu birliklar lingvopoetika tarmog'ining alohida qat'iy bir tizim asosida o'rganishda asos vazifani bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. G.Rixsieva lingvopoetika sohasining ba'zi bir xususiyatlari haqida fikr yuritib, mazkur sohaning tadqiqot manbaini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflaydi:

1. Poetik fonetika.

2. Poetik leksikologiya.

3. Poetik morfemika.

4. Poetik semantika.

5. Poetik sintaksis. [3.84-86]

Tadqiqotchi A.Nurmonov tasnifiga qo‘shimcha poetik morfemika va poetik semantika kabi bo‘limlarni kiritadi, biroq uning takliflari ba‘zi e’tirozlar tug‘diradi. Chunki u belgilagan poetik fonetika, poetik leksikologiya, poetik morfemika, poetik semantika va poetik sintaksis kabi yo‘nalishlar V.M.Jirmunskiy qarashlari bilan bir xil, ya’ni unda ham lingvopoetik tahlil jarayonida poetik sathni emas, ma’lum bir sathga doir poetik vositalarni o‘rganish mumkinligi anglashiladi. M.Qosimova[4.17] ham nomzodlik ishida G.Rixsieva tasnifiga tayangan holda badiiy asar nutqi va adib uslubini shakllantiruvchi lisoniy vositalarni quyidagi turlarga bo‘lib tahlil qiladi: fonetik, leksik, morfologik, sintaktik vositalar.

G.Rixsieva tasnifidagi “poetik morfemika” M.Qosimova tadqiqotida grammatik vositalarning tarkibiy qismi hisoblangan morfologik vositalar doirasida tekshirilgan va “Poetik semantika” esa leksik vositalar hamda ko‘chimlar tarkibida o‘rganilgan. Biroq ushbu tasnif va berilgan fikrlar ham e’tirozlidir, chunki tasnif lingvopoetik tahlil asosida emas, aynan lingvistik tahlilga asoslangan holda berilgan. Odatda lingvopoetik tahlil jarayonida faqatgina lingvistikaga doir fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalar tahlil qilinmaydi, balki fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarning poetik funksiyalari tahlilga tortilishi zarur.

Yuqorida tahlil etilgan tilshunoslar tadqiqotlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, lingvopoetika sohasining bunday tur va tizimga solinishi badiiy asar tilini lingvopoetik aspektda o‘rganishning umumiy metodologiyasi shakllanishiga xizmat qilsa-da, lingvopoetikaning nazariy asoslari keng va to‘liq ishlab chiqilmaganligini, aniqrog‘i, mukammal bir tizimga solinmaganligini va bu yo‘nalishlar mohiyati hamda ularning har biriga xos xususiyatlar haqida umuman fikr yuritilmaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur maqolamizda maqolaning hajmini inobatga olib lingvopoetika sohasining tahlil tamoyillaridan sintaktik tamoyilning ayrim jihatlariga to‘qtalamiz.

Sintaktik vositalarning poetik funksiyalari (sintaktik poetika). Ushbu yo‘nalishda matn komponentlaridan hisoblangan *gap qurilishi* lingvopoetik jihatdan tadqiq etiladi. Bunda lingvopoetik tahlil formal, mazmuniy, kommunikativ va matn sintaksisi bilan bog‘liq holda olib boriladi. Muallifning g‘oyasi va maqsadini aniqlashda gaplar va gap bo‘laklari tartibi, shakliy va mazmuniy mutanosib (ellipsis va antiellipsis, parsellyatsiya, paranteza, gradatsiya, sintaktik parallelizm, ritorik so‘roq, emotsional gaplar va boshq.)lik kabi ekspressiv sintaktik vositalarga e‘tibor qaratiladi. Bunda tahlil gapning formal-grammatik bo‘linishi, aktual bo‘linishi, mantiqiy urg‘u va presuppozitsiya kabi hodisalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Umuman, bu yo‘nalish struktural poetika tushunchalari bilan aloqador keng qamrovli yo‘nalishlardan biri sifatida badiiy asar tuzilishida muhim stilistik funksiya bajara olishi bilan ahamiyatlidir. Sintaktik poetika stilistika bilimlari ko‘magida shakllangan alohida soha sifatida e‘tirof etiladi.

She‘riy matnda gap bo‘laklarining tartibi, qofiya talabi bilan o‘zgaradi. Ularning o‘rnini almashtirish odatda grammatik holatni o‘zgartirmaydi. Masalan: Oppoq bulutlar qishloq ustidan shoshilmay, toqqa qarab o‘tib ketadi. (S.Ahmad). - Qishloq ustidan oppoq bulutlar shoshilmay o‘tib ketadi toqqa qarab. - O‘tib ketadi shoshilmay toqqa qarab oppoq bulutlar qishloq ustidan. – Shoshilmay o‘tib ketadi qishloq ustidan toqqa qarab oppoq bulutlar. Mazkur gaplarda gap bo‘laklarining o‘rinlarini almashtirish grammatik holatni o‘zgartirmagan, ammo gap mazmuniga ma‘lum darajada ta‘sir etgan, negaki har gal boshqa-boshqa gap bo‘laklariga odatdagidan ko‘proq ahamiyat berilgan. Lekin, shunga qaramay, gap bo‘laklari ma‘lum bir me‘yoriy tartibda joylashish xususiyatiga ega.

O‘zbek tilida gap bo‘laklarining joylashish tartibi, asosan, erkin. Odatda, gapda **ega** va unga bog‘langan bo‘laklar oldin, **kesim** va unga bog‘langan bo‘laklar keyin joylashadi. [5.93]. Bunday tartib, asosan, darak gaplarda bo‘lib, u **odatdagi, me‘yoriy** tartib deyiladi.

Har bir gap bo‘lagiga nisbatan tartib quyidagicha bo‘ladi:

I. Ega, odatda, gap boshida keladi: Kishilar mirishkor raisni qarsaklar bilan

olqishladilar. (Y.Shukurov).

Yoyiq gaplarda ega ba'zan kesim oldida ham kelishi mumkin: Uning yigirmataga yaqin qo'y-echkisi borligini ko'p odam bilar edi. (P.Qodirov).

Ba'zan ega gapning oxirida ham keladi: G'o'za umriga zavol-ku u. (J.Abdullaxonov).

II. Kesim odatda gapning oxirida keladi: Bog'da yetti-sakkiz tup mevali daraxt, ikki chinor, ikki tup mirzaterak o'sgan edi. (J.Abdullaxonov).

She'riyatda, ishorlarda kesim gapning boshida ham keladi:

Intilar borliqni inson

Barkamol etmoq uchun.

Ne atab, insonni borliq

Barkamol etgan emas. (E.Vohidov)

III. Vositasiz to'ldiruvchi odatda fe'l kesim oldida keladi. Masalan: Mashina shamoli brezentning uchini hilpiratib, chakmonning etaklarini tortqilaydi. (P.Qodirov).

Ba'zan vositasiz to'ldiruvchi gapning boshida keladi: Yomonlik o'tini faqat yaxshilik o'chiradi. («Oz-oz o'rganib dono bo'lur»).

Vositali to'ldiruvchi ham ko'pincha kesimdan oldin keladi: Xayrli va sababli ishlar insonni turli halokatlardan saqlaydi. (Hadis namunalari).

IV. Hol ham asosan kesimdan keladi:

1. Payt holi, odatda, gap boshida, ba'zan egadan keyin, ayrim hollarda kesimdan oldin keladi. Masalan: Bugun vahshiy tog'lar orasida u bilan yuzma-yuz keldi. (S.Ahmad). Tolibjon dunyoda nimalar bo'layotganidan bexabar. Gazeta yo'q, televizor hali ham ishlamaydi. (S.Ahmad). Erali allaqachon juftakni rostlab qolgan edi. (S.Ahmad).

2. O'rin holi, odatda, kesimdan oldin keladi, ba'zan esa gap boshida keladi: ...mashina tog' etagidagi ellik-oltmish hovlilik Oyko'l qishlog'iga kirib bordi. (P.Qodirov). Tekislikka yoqqan yomg'ir tog' tepasiga qor bo'lib tushgan ekan. (P.Qodirov). Tekislikning uzoq chetidan chiqib kelgan yuk mashinasi shu tog'ga qarab jadallab boryapti. (P.Qodirov).

3. Ravish holi, odatda, kesim oldida, ba'zan gap boshida keladi: ...barglar orasiga to'planib qolgan oppoq yomg'ir suvi oftobda yaltirab, tirqirab to'kildi. (P.Qodirov). – Keling, - deb sovuqqina ko'rishdi. (P.Qodirov). Qo'qqisdan qorasovuq boshlanib, cho'ponlarni tashvishga solib qo'ydi. (M.Qoriev).

4. Miqdor-daraja holi ham kesim oldida keladi: Ko'p yurgan ko'p ko'rar, ko'p o'qigan ko'p uqar. (Maqol).

5. Sabab va maqsad hollari kesimdan oldin, gapning boshida yoki o'rtasida keladi: Aqlning eng katta g'alabalari, ehtimol, ehtiroslar tufayli ro'yobga chiqqandir. («Tafakkur gulshani»). Atay izlab keldim, oq qoya, sen naqadar mag'rur va kibor. (Mirtemir). Endi ularning xatosini tuzatish uchun hammamiz qancha mashaqqat chekamiz. (P.Qodirov).

V. Aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Agar bu tartib o'zgarsa, ularning grammatik holati ham o'zgaradi.

1. Qaratuvchi qaralmishdan oldin keladi: Har bir kishining so'zi o'z fazilatlari dalili va aqlining tarjimonidir.

2. Sifatlovchi sifatlanmishdan oldin keladi: Havoda ... yong'oq hazonlarining o'tkir hidi gurkirardi. (O'.Hoshimov). Muvaffaqiyatli tarbiyaning siri - o'quvchiga hurmatda bo'lish.

Gapda sifatlovchi birdan ortiq qo'llansa, ularning tartibi quyidagicha bo'ladi:

1) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: U atrofida mavj urib turgan yashil daraxtlarga ... zavq bilan tikilardi. (P.Qodirov).

2) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi + olmosh bilan ifodalangan sifatlovchi + sifat bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: Osmonning yarmigacha chiqib borgan bu bahaybat devorning u yer - bu yerida cho'ponlar yoqqan gulxanlar milt-milt qiladi. (P.Qodirov).

3) -dagi affiksli so'z bilan ifodalangan sifatlovchi + sifat bilan ifodalangan sifatlovchi + sifatlanmish: Hulkar chelakdagi tiniq suvdan ... olib kelib berdi. (P.Qodirov). ...ko'zi akasining chap qo'lidagi qo'shaloq barmoqqa tushdi. (P.Qodirov).

4) miqdor tushunchasini bildiruvchi so'z (son, olmosh, ravish) bilan ifodangan

sifatlovchi + sifat bilan ifodangan sifatlovchi + sifatlanmish: ...suvdan bir chini kosa olib kelib berdi. (P.Qodirov).

5) sifatdosh bilan ifodalangan sifatlovchi + son bilan ifodalangan sifatlovchi+sifatlanmish: Yomg'irdan keyingi loyqada muhrlanib qolgan ikkita izning nimasidir go'dak tovonini eslatar edi. (P.Qodirov).

Izohlovchi izohlanmishdan oldin yoki keyin keladi: O'shanda Oxunboboyev bilan quvalik temirchi Shakarxon Mo'minova degan juvonning suvrati gazetada chiqqandi. (S.Ahmad). Norboy ota usta Qambarga gap uqtirib ketdi. (P.Qodirov).

Agar gap bo'laklarining odatdagi, me'yoriy tartibi o'zgarsa, inversiya hodisasi ro'y beradi. Inversiya hodisasi ko'proq jonli tilda va she'riyatda kuzatiladi. Inversiyada odatda gap bo'laklarining grammatik holati o'zgarmaydi. Masalan: Rahmat deyman yorug' dunyoda Dangasalar borligi uchun. (E. Vohidov "Dangasalar" she'ri) (Kesim inversiyaga uchrab gap boshida kelgan). Yapon bundoq yasholmas hech ham, Xarakiri qilar o'zini. (E. Vohidov "Nega yapon yuz yil yashar" she'ri). (Vositasiz to'ldiruvchi inversiyaga uchrab kesimdan keyin qo'llangan). Pastga boqdi cho'qqidan asta Oltin qalam tutgan bir naqqosh. (E. Vohidov "Tong lavhasi" she'ri). (Ega va unag oid bo'laklar gap oxirida kelgan) Garchi shuncha mag'rur tursa ham, Piyolaga egilar choynak. (E.Vohidov "Kamtarlik haqida" she'ri). (Ega inversiyaga uchrab gap oxirida kelgan). Mening ko'zim derdi: "Ey, aziz, Qayda eding o'ttiz yil avval?" (E.Vohidov "Tushlik tanaffus" she'ri). (Payt holi gap oxirida kesimdan keyin kelgan).

Xulosa qilib aytganda, she'riy matnlarda me'yoriy tartib o'zgartirilishi orqali gap bo'laklari o'z o'rnida qo'llanmaydi. Bu o'quvchiga kuchli emotsional ta'sir o'tkazish va so'zlarga alohida urg'u berishga yordam beradi. She'riy matnlar ritm va ohang asosida shakllantiriladi, bu esa gap bo'laklari joylashuviga ta'sir qiladi. She'rda ohang va o'qish tempiga mos keladigan tarzda gap bo'laklari joylashgan bo'ladi. She'riy uslubda yozuvchiga ijodiy erkinlik berilib, odatiy grammatik me'yorlardan chiqishga imkon beriladi. So'zlarning joylashuvi ijodkorning o'z fikrini yanada aniqroq, hissiy va ifodali yetkazishiga xizmat qiladi.